

SURXON VOHASIDA ISLOM DINI BILAN BOG'LIQ ZIYORATGOHLAR

Tojiyeva Nafisa O'roq qizi

Termiz davlat universiteti

Tarix fakulteti Magistratura bo'limi

M 124 - guruh 1-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14741473>

Annotatsiya. Ushbu maqola Surxondaryo viloyatida joylashgan ziyoratgohlar va muqaddas qadamjo hisoblangan obyektlarning tarixi va bugungi holati arxeologiya, etnografiya, sotsiologiya fanlari kesimida tadqiq etilgan. Bundan tashqari madaniy merosimizni qayta tiklashga qaratilgan chora tadbirlarni o'zida aks ettiradi.

Kalit so'zlar: Islom hamkorlik tashkiloti, Abu Iso Termiziy, Imom Buxoriy, Sufi Olloyor, Zu-l Kifl, Xidirsho, Oq Ostona, Atxam Sahoba ziyoratgohlari, maqbara, masjid, pir, sahoba, xo'ja.

ISLAMIC SHRINES IN THE SURKHANDARYA OASIS

Abstract. This article examines the history and current status of shrines and sacred sites in the Surkhandarya region from the perspectives of archeology, ethnography, and sociology. In addition, it reflects measures aimed at restoring our cultural heritage.

Keywords: Organization of Islamic Cooperation, Abu Isa Termizi, Imam Bukhari, Sufi Alloyor, Dhu-l Kifl, Khidirsho, Aq Astana, Atkham Sahaba shrines, mausoleum, mosque, pir, sahaba, khoj.

ИСЛАМСКИЕ СВЯТЫНИ В СУРХАНСКОМ ОАЗИСЕ

Аннотация. В статье рассматривается история и современное состояние святынь и священных мест, расположенных в Сурхандарьинской области, с точки зрения археологии, этнографии и социологии. Кроме того, в нем отражены меры, направленные на восстановление нашего культурного наследия.

Ключевые слова: Организация исламского сотрудничества, Абу Иса Термизи, Имам Бухари, Суфи Аллойор, Зуль-Кифл, Хидириша, Белый трон, святыни Атам Сахаба, мавзолей, мечеть, пир, сахаба, ходжа.

Kirish: Istiqlol yillaridan so'ng muqaddas ziyoratgohlarga madaniy va manaviy merosimiz yodgorliklari sifatida alohida e'tibor berilmoqda. Muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 10-sentabr kuni Islom hamkorlik tashkilotining fan va texnologiyalar bo'yicha birinchi sammitida so'zlagan nutqida ta'kidlaganidek: "Islom dini va madaniyatining jamiyat ma'naviy hayotida tutgan o'rnini hisobga olib O'zbekiston Respublikasida yoshlarning tafakkurini marifat asosida shakllantirish va tarbiyalash, dinimiz tarixi, buyuk allomalar va aziz avliyolarimiz merosini o'rganish va targ'ib etish yurtimizning o'ziga xos tarixi, madaniyati va bebaho manaviy

merosimizni to'liq o'rganish vazifasini kun tartibiga qo'yish", yangi ilmiy izlanishlarni talab qiladi. Islom ilohiyati va tasavvuf falsafasi hadis ilmi bo'yicha buyuk ajdodlarimizdan qolgan merosni izchil o'rganish va ijodiy o'zlashtirish naqadar muhim bo'lsa, bunday tabarruk zotlarning hayoti va vafoti bilan bog'lik qadamjolar tarixini o'rganish ham shunchalik muhimdir. Islom madaniyati va tarixini aks ettiruvchi tarixiy obidalar Surxondaryo viloyatida ham asrlar mobaynida avaylab-asrab kelindi.

Adabiyotlar tahlili va metadologiyasi: Surxon vohasida qadimgi islom dini bilan bog'liq ziyoratgohlar bo'yicha ko'pgina olimlar izlanishlar olib borgan. Maqolani tayyorlashda Tursunov S Surxondaryo viloyati toponimlari, O'rta asr Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidagi roli va ahamiyati, Xoliqov Z, Dejimurodov X Termiz va Chog'onyonning o'rta asrlardagi tarixiy geografiyasi, „O'zbekiston milliy ensiklopediyasi“ning ahamiyati katta bo'ldi. Termiz tumanidagi Hakim Termiziy, Kokildor ota, Kirq qiz, Sulton Sodot, Sheroboddagi Atoullo Said Vaqqos, Uzun tumanidagi Abu Hurayra, yani Ostona bobo va boshqa ziyoratgohlar shular jumlasidandir. Termiz shahrining 2500 yillik yubiley munosabati bilan Surxon vohasidagi ziyoratgohlar qaytadan tamirlandi va shu ravishda ziyorat uchun boradigan muqaddas qadamjolar, ruhiy poklanish va manaviy yuksalish maskanlari bo'lib hisoblanadi. Eng yirik ziyoratgohlar asosan Termiz va uning atrofidagi hududlarda joylashgan.

Bularga Hakim Termiziy, Zul-Kifl, Qirqqiz majmuasi, Sulton Saodat maqbaralar majmui, Kokildor ota, Murch bobo sag'anasi kabi yodgorliklar kiradi. Muqaddas qadamjolar qabrning mavjud yoki mavjud emasligiga qarab 2 turga bo'linadi:

1. Shaxs dafn qilingan qabrlar (haqiqiy).

2. Ramziy qadamjolar. Ramziy ziyoratgohga aylanganlari xalq orasida hurmatga sazovor kishi yoki islom yo'lidagi sahoba, pir, sayyid, to'ra, avliyo va diniy unvonlarga loyiq ko'rilgan shaxs nomi bilan bog'liq yoki shaxsi noma'lum Afsonalarga tashrif maskanlari tashkil etadi.

“Ramziy qabr” arabcha “ramz”, “belgi”, “ishora” so'zidan olingan bo'lib, uzbek tili etimologik lug'atiga ko'ra, “ishora qilib turuvchi” ma'nosini bildiradi, yangi umumiy tushunchada hurmat ishorasi, belgisi sifatida o'zlashtirilgan. Surxon vohasidagi ziyoratgohlarning aksar holati islom yo'lida xizmat qilgan, islom dini va madaniyati taraqqiyotiga hissa qo'shgan mashhur shaxslarning ismlari bilan bog'liqligini qurish mumkin. Tasavvuf ilmining Termizda keng tarmoq otish sabablaridan biri shuki, Termiz karvon yo'llari o'zaro kesishgan hududda joylashib, Buxoro va Samarqand shahrini Balx bilan bog'lagan bo'lsa, o'rta asrlarda madaniy-marifiy markaz va IX-X asrlarda dunyo diniy ilmi rivojlangan hudud, sayyidlar va fozillar yetishtirgan yurt hisoblangan.

Sherobod tumanida islom dunyosi xadishunosligida Imom Buxoriydan keyin ikkinchi o'rinda turuvchi alloma, ko'plab asarlar muallifi, muhaddis olim Abu Iso Termiziy dafn etilgan (X-XI asrlar) ziyoratgoh bo'lib, u tumanning sharqiy tomonida, yani olti kilometr masofadagi

Yaxtiyo'1 mahallasi hududidagi qabriston yonida joylashgan¹. Islom olamida "Sihhi sitta" (Olti ishonchli to'plam) nomi bilan mashhur hadis kitoblaridan birining muallifi, buyuk muhaddis allomaning to'liq ismi Muhammad ibn Iso ibn Savra ibn Muso ibn ad-Dahhoq as-Sulamiy al-Bug'iy at-Termiziy bo'lib, u hijriy 209 (mil. 824) yilda Termiz yaqinidagi Bug' qishlog'ida tavallud topgan. Ibn Amirning qayd etishicha, Termizdan olti farsah (48 km) uzoqlikda joylashgan Bug' degan (gozirgi Sherobod shahridan 6 km sharqda joylashgan) qishloqda xijriy 279 yil 13 rajab/milody 892 yil 8-oktabr dushanba kuni vafot etgan². Abu Iso Termiziy yoshligidan ziyrak va aql-idrokli bulib, aval Termizda, keyin Bukhoroda talim olgan. U talabalik yillarida xadis ilmiga juda qiziqqan. Shunday qiziqish tufayli o'sha davrning ko'pgina ilmlarini, ayniqsa, hadis ilmini chuqur egallagan. Yoshligidan ilm-fanga tashna bo'lgan Abu Iso Termiziy 26 yoshidan yuqori, islom talimot va hadisnavisligi bilan bir qatorda Makka, Madina, Iroq, Xuroson, Damashq kabi shaharlarda qiroat, bayon, fiqh, tarix va falakiyot. kabi fan sohalarini o'rganib, katta qomusiy olim darajasiga ko'tarilgan va ilm olamida taniqli kishiga aylangan³. Abu Iso Termiziy Imom Buxoriyning shogirdi bo'lib, Qutayba ibn Said al-Bag'dodiy, Ali ibn Xajar, Marvaziy, Xannod ibn Sirriy Kufiy, Abu Qurayb Muhammad ibn Muso Basriy, Abdulloh ibn Abdurrahmon Dorimiy.

Samarqandiy⁴ va boshqa ko'plab Iroq va hijoz mashoyixlaridan ham ilm olgan. O'z yurtlarida esa, Muhammad ibn Sahl G'azzol, Bakr ibn Muhammad Dexqon, Abu Nazr Rashodiy, Hammod ibn Shokir Nasafiy, Abu-l-Abbos Maxbubiy, Marvaziy va Haysam ibn Kulayb Shoshiy kabi zotlarga shogird tushib, hadis ilmini o'rganganlar⁵. Imom Termiziyning asarlari islom dunyosida mo'tabar hisoblanib, "al-Jome' as-Saxih" (Ishonchli to'plam), "al-Jome' al-Kabir" (Katta to'plam), "Saxih at-Termiziy", "Sunan at-Termiziy" (Termiziy sunnatlari), "ash-Shamoil an-nabaviya" (Payg'ambarning alohida xususiyatlari), "Ulum al-xadis" (Hadis illmlari), "al-Ilal fil-Hadis" (Hadislardagi illatlar yoki nuqsonlar) kabi nomlar bilan ham yuritilgan. Surxondaryo vohasidan termiziy nisbasi bilan ijod qilgan olimlar juda ko'p bo'lgan. Keyingi davrda islomiy ilmlar rivojida turli sohalarida faoliyat yuritgan olimlar silsilasi vujudga kelishiga sabab bo'lgan.

Aytish lozimki, bunda Markaziy Osiyoda aynan tasavvuf talimoti yetakchilik qilgan va hakimiya tariqatining vujudga kelishiga asos bo'lgan, Surxondaryo tasavvuf maktabining otasi Hakim Termiziy bo'lib, Termiz tumanida u zotning sharafiga X-XIV asrlarga tegishli xotira

¹ Dala tadqiqotlari. – Surxondaryo viloyati, Sherobod tumani Yaxtiyo'1 mahallasi. 2019-yil, 7-avgust. 4-daftar.

² Abu Iso Muhammad Termiziy. Sunani Termiziy \tarj.: Mirzo Kenjabek. – T.: Adolat, 1999. – B. 12; Uvatov U. Ikki buyuk donishmand. – T.: Sharq, 2005. – B. 6.

³ Alimova M. Imom ad-Dorimiyning hadis ilmi rivojiga qo'shgan xissasi: Tar. Fan nomz....dis. avtoref. T.: Toshkent islom universiteti, 2009.27 b.

⁴ Abdu-l-Karim as-Somoni. al-Ansob (Nasabnoma) / Tarj.: Abdul-Gofir Razzok, Komiljon Rahimov. Buxoro: Buxoro, 2002. B. 64....

⁵ Uvatov U. Ikki buyuk donishmand (Abu Iso at-Termiziy, Al-Hakim at-Termiziy). - T.: Sharq, 2005. – B. 11-12. (Umumiy 78) Uvatov U. Imom at-Termiziy / Buyuk yurt allomalari. Ikkinchi nashri. Tuzuvchi U. Uvatov. T.: O'zbekiston, 2018. - B. 19-28.

yodgorlik majmuasi barpo etilgan. Ushbu ziyoratgoh IX asrda yashab faoliyat yuritgan xakimiylik tarikatining asoschisi, termizlik mashur olim, qator diniy-falsafiy asarlar muallifi, yirik zohid Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali ibn Husayn Hakim. Termiziy (vaf. 869) nomi bilan bog'liqdir.

Hakim Termiziy nafakat zohiriy, shu bilan birga, botiny ilmlarni chuqur egallagan ulamolardan biridir. "Al-Hakim" "Donishmand Termiz ota", "at-Termiziy" nisbasini aynan termizlik bo'lganligi uchun olgan. Ul zot sharafiga barpo etilgan ziyoratgoh obyektining mashhurligi nafaqat viloyatda, balki butun islom olamida "Termiz ota" nomi bilan ulug'lanadi.

Alisher Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat" asarida Muhammad bin Ali Hakim Termiziy ikkinchi tabaqadandur, kuniyati Abu Abdulloh bo'lib, Abu Turob Naxshabiy va Ahmad Xuzravayx va ibn jallo bilan subatga kirishganini hamma. olimning "Hat ul-valoyat", "Naxaj", "Navodir ul-usul va ko'plab kitoblari borligini keltiradi. Hakim Termiziy mashxur muhaddis va tasavvuf shayxlaridan, VIII-IX asrlarda yashab o'tgan. Bu allomaning ota-onasi hadis ilmidan xabarlar bo'lib, dastlabki ta'limni ulardan olgani keltiriladi. Alloma 25 qismi Movarounnahr shaharlarida ta'lim olib, 27 yoshida Makkaga Haj amalini o'tash uchun yo'lga chiqadi. Yo'lda xadis ilmi haqida Kufa, Bag'dod va Basra shaharlarida bo'lib, balxlik sufiy Ahmad ibn Xizruya va "Osim al-Antoqiynig she'rlari bilan tanishadi. Uning ilmiy-adabiy namunalaridan hakim Termiziy qattik ta'sirlangan. U bir qancha sufiylar xususan Abu Turob an-Naxshabiy (vafoti 861) va Yaxyo ibn Jamol va Ahmad ibn Xizruya (vaf. 855)ning qo'lida talim olgan⁶. Hakim Termiziy Shom, Bagdod, Misr mutasavvuf olimlari bilan ham muloqotda bo'lib, ilk sufilik harakati, zohidlik va oriflik g'oyalari kuchaygan Makka, Madina, Misr, Bag'dod, Basra, Kufa, Yaman, Hamadon, Nishopur kabi islom dunyosining markaziy shaharlarida tasavvufiy qarashlar shakllangan davrda yashagani ilmiy kamolotida muxim ahamiyat kasb etgan. Tasavvuf ilmi bobokalonlaridan biri Zunnun Misriy (Zunnuniya tarikati asoschisi), Boyazid Bistomiy (tayfuriya tariqati asoschisi), Junaid Bag'dodiy (junaydiya tarikatining asoschisi), Abu Mansur xalloy kabilarning tariqatlarini o'rgangan, maqomotu manoqiblarni tahlil qilgan. Hakim Termiziy Nishopurga borib, Hakimiya tariqatiga asos solgan⁷. Halifa Ma'mun Bag'dodda ta'sis etgan ilm maskani Bayt ul-hikmada faoliyat kursatgan olimu fozillar orasida alohida shuhrat topib, "Kidvat ul-avliyo", yani "Avliyolar yo'lboshchisi" degan nom bilan tanilgan⁸. Yana shuni ta'kidlab o'tish joizki, ba'zi bir ziyoratgohlar mintaqada mashhur tarixiy shaxslar avlodiga tegishli maqbaralarni o'zida mujassam etadi.

Masalan, Kokildor ota ziyoratgohi (XII Asr) Hakim Termiziy nomi bilan bog'liq bo'lib, Kokildor ota Hakim Termizining kuyovi, uning qizi Xurayda binti Muhammad al-Hakimning

⁶ Knysh A.D. Musulmon tasavvuf: qisqacha tarix / Trans. ingliz tilidan M.G. Romanova. Sankt-Peterburg: DILYA, 2004. S. 118.

⁷ Rahimov K. Movarounnahr tasavvuf tarixi: ta'limotining shakllanishi va tizimlashtirilishi (VIII-XI asrlar). T.: Akademik nashr, 2020. B. 33.

⁸ Tafakkur samosidagi yorikin yulduz // Moziydan sado. -2001, 4 (12) - uyqu. B. 18-19.

yo'ldoshi sifatida qayd etilgan. Uning asl ismi Somon Ashur Xamzai Hofiz Kokildor bo'lib, u mashhur hattot, olim va ko'pgina asarlar muallifi sifatida malum. Somon Ashur 942-yilda Termizda Hamzai Hofiz (doston aytuvchi, kuylovchi) oilasida tavallud topgan. Ahmad Usturlobi Termiziyning 36 nafar shogirdlaridan tanlab olingan Somon Ashur 21 yoshida sochini o'stirib, "Xamzai Hofiz Kokildor" tahallusi bilan 341/952-53 yilda qirq qiz qalasiga ilm o'rganish va o'rgatish uchun jo'natilgan. Ilmi nujum, ilmi tabobat, mufassiri Quron sohibi hisoblangan Kokildor ota o'z davrining ilmi kishisi bo'lgan. Somon Ashur Qirqqiz qal'asidagi qizlarga ilmi nujum, riyoziyot, va handasadan saboq bergan. Somon Ashurni qalada "Xamzai Hofiz Kokildor" deb atashgan. 966-yili Somon Ashur Hakim Termiziy qizi Xudaydaga uylangan. Shu yili ularga "Ko'shki Kokildor" maqbarasi qurilishiga ruxsat berilgan. Ziining kizi Huraydaga uylangan. Shu yili "Kushki Kokildor" maqbarasi kurilishiga rukhsat berilgan "Xamzai Hofiz" maqbarasining qurilishi tugallanmasdan, 370/980-81 yili olamdan o'tgan. U o'ziga atab qurilayotgan Ko'shki Kokildorga qo'yilgan. Keyinchalik bu ziyoratgoh qabristonga aylangan. Maqbara o'sha yerlik saxovatpesha kishilar tomonidan bir necha marta tamirlangan. 2001-yil avgust oyida mazkur allomaning xokini Sulton Saodot qabristoniga ko'chirilgan. Yana shuni ham ayish mumkinki, mazkur shaxsning maqomoti sayidlik darajasiga ko'tarilganidan dalolat beradi.

Qirqqiz qal'asi-O'zbekiston hududidagi qizlarning ilk Islom Akademiyasi— Surxondaryo viloyatida joylashgan me'moriy yodgorlik (9—10-asrlar). Termiz tumanida vayrona holida saqlanib qolingan. Nima maqsadda qurilganligi (qal'a, saroy, xonaqoh, karvonsaroy) haqida ma'lumot mavjud emas. Tadqiqotchilar tomonidan ushbu yodgorlik qanday vazifada foydalanilgani haqida turli farazlar mavjud. Shahar tashqarisidagi zodagon saroyi, qizlar madrasasi, xonaqoh, karvonsaroy va boshqa taxminlar bildiriladi. O'rta asrlarda Termiz shahrining tashqarisida joylashganligi qal'a shahar tashqarisidagi qo'rg'on vazifasini o'taganligini ko'rsatadi⁹. U dunyo tomonlariga moslab qat'iy mujassamot tarzida bunyod etilgan. Qirqqiz qal'asi IX asrda somoniylar tomonidan bunyod etilgan. Qal'a qurilishida Eron va Hindistondan olib kelingan ustalar qatnashgan. XII-XIII asrlarda mo'g'ullar hujumi vaqtida binoning ikkinchi qavati buzib tashlanadi. Bu qal'a IX-XV asrlar davomida bir necha marotaba qayta bunyod etilgan. Qirqqiz qal'asi to'rtburchak tarhli (53,3×54,8 m), 1 qavatli, faqat yo'laklardan tashkil topgan bo'lib, umumiy balandligi 2 qavatli. Jami 54 ta hujraga ega. Inshoot xom g'isht (30×30×5 — 5,5 sm)lardan qurilgan, toq va ravoqlarida shu o'lchamdagi pishiq g'ishtlar ham ishlatilgan. Qal'a tashqi tomoni qalin devor bilan o'ralgan (tashqi devor qalinligi 2—2,5 metr), burchaklari hajmdor burjlar bilan mustahkamlangan; burjlar oralig'ida toklar bilan yopilgan ayvonlar joylashgan, tarzlariga bir maromda takrorlanuvchi tuynuklar ishlangan¹⁰.

⁹ „Termiz tumanidagi Qirqqiz qal'asi“. meros.uz.

¹⁰ "Qirqqiz qal'asi" O'zME. Q-harfi Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

Qal'aning barcha xonalari va markazdagi sahn (11,5×11,5 m) o'zaro yo'laklar bilan bog'langan; markaziy sahn hovli yoki gumbazli zal bo'lgan deb taxmin qilinadi. Qirqqiz qal'asi shimol, janub, g'arb va sharqqa moslab qat'iy mujassimotda bunyod etilgan. Ayvon va yo'laklar binoni 4 qismga bo'lgan. Ular 2 ta bir xil tuzilgan qismlar bo'lib, har birida 5 xona va 3 tomonidan o'ralgan yo'lakka ega, yo'lak eni 2,1 metrga teng. Shimoli-g'arbiy va shimoli-sharqiy hamda 2 ta janubi-g'arbiy (2 ta yo'lakcha bilan bog'langan 5 ta xona) va janubi-sharqiy (yo'lakcha bilan bog'langan 2 ta xona va 3 ustunli katta mehmonxona) qismlardir. Yo'laklar va xonalar devordagi tuynuklar orqali yoritilgan. Qirqqiz qal'asi yopmasida balxi hamda kesishgan gumbazsimon toqlar, boshqa turlardagi gumbazlar, toqlar va ravoqlar qo'llangan. Qal'ada darsxona, hammom, hojatxonalar ham bo'lgan. Suv ariqlar orqali kirgan. Qal'aga to'rt tomonidagi darvozalar orqali kirish mumkin bo'lgan. Bu dunyoning to'rt tomonidan kirish imkoni bor degan ma'noda qurilgan¹¹.

Muhokama: O'zbekistonning janubiy hududi Surxondaryo viloyati nafaqat Markaziy Osiyo, balki Sharqning qadimgi madaniyat markazlaridan biri hisoblangan. Kadimgi Buyuk Ipak yo'lida joylashgan. Surxon vohasi zardushtiylik, buddaviylik, Xristianlik va moniylik kabi turli dinlarning yig'irlari, taraqqiy etishi, shakllanishiga asos solgan. Sopollitepa, Jarqo'ton, Ayritom, Termiz, Dalvarzintepa, Xolchayon, Fayoztepa va Koratepa kabi qadimiy arxeologik yodgorliklar xududda o'ziga xos muqaddas diniy obidalar, ziyoratgollar kabi tarixiy-arxeologik kompleksni tashkil etadi¹².

Xulosa: Xulosa kilib aytganda, Surxondaryo vohasi ziyoratgohlari va muqaddas qadamjolarining paydo bo'lishi va shakllanishida mahalliy xalqning ilm-fan, islom dini, kasb-hunar, tibbiyot, o'zlikni anglash, tasavvur va ongning yuksalishi va ustoz-shogird maktablarini shakllantirishda tabiat va jamiyat o'rtasida uyg'unlikni vujudga keltirish, hukmron sinflar bilan oddiy xalq o'rtasida o'zaro hamkorlikni yaratishga munosib hissa qo'shgan ulug' insonlar xizmati alohida inobatga olingan va tarixan shakllangan. Bunday shaxslar nomi mahalliy aholi tomonidan ulug' va muqaddaslik darajasiga ko'tarilgan. Vohadagi har bir ziyoratgoh mahalliy aholining ma'naviy-tarbiyaviy hayotida muhim rol o'ynagan, u yerda yotgan shaxs ongi, tasavvuri, diniy va dunyoviy ilmlarni egallashi bilan ajralib turgan hamda uning kasbi bilan bog'liq xizmatlari inobatga olinib, tarixiy voqealarga, urf-odatlariga qo'shgan hissasi diqqat-e'tiborda tutilgan.

Bundan hududdagi ziyoratgohlarning aksariyati avliyo darajasiga ko'tarilgan sahobalar nomi bilan bog'liq maskanlar hamda sayyidlar nasabi ulug'langanini ko'rish mumkin. Mazkur holat O'zbekistonning boshqa hududlarida uchramaydi, shunga qaramay xududning o'rta

¹¹ <https://web.archive.org/web/20230814043822/https://kun.uz/uz/73670460>

¹² Masson V.M. Qadimgi Markaziy Osiyoning madaniy genezisi. Sankt-Peterburg: Sankt-Peterburg davlat universiteti nashriyoti. 2006. 184-bet.

asrlardan keyingi yillarga qadar islom dini va madaniyati uyg'unlashgan, mahalliy qadriyatlar bilan islomiy an'analar transformatsiyaga uchraganini ko'rish mumkin. Shuni ham aytib qo'yish joizki, viloyatning tog' va cho'l hududlarida shaharga nisbatan diniy va madaniy sohadagi o'zgarishlar sekin kechganini ko'rish qiyin emas. Natijada olis mintaqalarda eski diniy tajriba diniy qarash, tasavvurlar va amaliyot uzoqroq vaqtgacha saqlanib turgan. Ziyoratgohlar ham ko'pincha aholi zich joylashgan yerlarda shakllanib, ziyoratchilarning serqatnovligi bois ularning obod bo'lishini ta'minlagan. Boshqacha aytganda, bunday qadamjolar atrofida masjidlar bunyod etilgani u yerda ibodat qilish uchun sharoit va imkoniyat yaratgan bo'lsa, aksariyat qadamjolarining tog' va tabiat bilan uyg'unlashgani u yerda mahalliy aholining tashrifi va hordiq olish imkoniyatlari mavjudligi bilan izohlanadi.

REFERENCES

1. Tursunov S Surxondaryo viloyati toponimlari. – T.:Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi. 2008. – B. 120-124.
2. O'rta asr Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidagi roli va ahamiyati. – T.: O'zbekiston 2014. – B. 8-15.
3. Xoliqov Z, Dejimurodov X Termiz va Chog'onyonning o'rta asrlardagi tarixiy geografiyasi Moziydan sado. – 2004, 2-son. – B. 22-24.
4. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi: 10-jild (Sharq — Qizilqum). Toshkent: „O'zbekiston milliy ensiklopediyasi“ Davlat ilmiy nashriyoti, 2005 — 656-bet.
5. „Termiz tumanidagi Qirqqiz qal'asi“. meros.uz.
6. "Qirqqiz qal'asi" O'zME. Q-harfi Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
7. <https://web.archive.org/web/20230814043822/https://kun.uz/uz/73670460>
8. Knysh A.D. Musulmon tasavvuf: qisqacha tarix / Trans. ingliz tilidan M.G. Romanova. Sankt-Peterburg: DILYA, 2004. S. 118.
9. Rahimov K. Movorounnahr tasavvuf tarixi: ta'limotining shakllanishi va tizimlashtirilishi (VIII-XI asrlar). T.: Akademik nashr, 2020. B. 33.
10. Tafakkur samosidagi yorqin yulduz // Moziydan sado. -2001, 4 (12) - uyqu. B. 18-19.